



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУз АСТА NUUz

МИРЗО УЛУГ'БЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2022
1/10**

**Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми**

Бош муҳаррир:

И.У.МАЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир хайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Нишоновна О.Ж. – ф.ф.д., проф.

Абдуллаева Н.Б. – ф.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Утамурадов А. – ф.ф.н., проф.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Болтабоев Ҳ. – фил.ф.д., проф.

Раҳмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Рофиева Г.Ю. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2022

МУНДАРИЖА

Тарих

Бабабеков А. Маросим иқтисодининг антропологик таҳлили	4
Жўраев Ж. Ўзбекистонда муқобил энергия соҳасининг ривожланиши	8
Kimsanboyeva Z. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Toshkent shahrining madaniy hayotida matbuotning oʻrni	12
Рахимов Н. Хоразм халқ шўролар жумҳуриятининг маъмурий тузилиши ва шаҳарсозлиги масалаларига доир	15
Turdiyeva M. Ikkinchi jahon urushiga oʻzbek ayollarning qoʻshgan hissasi	19
Namidova M. Amir Temur va temuriylar davri tarixiy obidalarining meʼmoriy bezaklari xususida	22
Фалсафа. Педагогика. Психология. Методика. Социология. Сиёсий фанлар	
Adilov N. Jismoniy tarbiya va sportning talabalar hayotidagi ahamiyati	26
Алиджанова Л. Исломи илоҳиётда инсон саломатлиги ва биоэтика муаммолари	29
Аллахова Л. Умумтаълим муассасаларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантириш йўллари ва шакллари	32
Асқарова Х. Бошланғич синф ўқувчиларида маданият ва ижодкорлик компетенцияларини шакллантиришнинг назарий асослари	36
Ахатжонов С. Вакиллик органлари ривожда нодавлат нотижорат ташкилотлар ва жамоатчилик назоратининг ўрни	40
Begmatova S. Boʻlajak oʻqituvchilarda axborot-texnologik kompetentlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari	44
Гофурова А. Олий таълим муассасаларида кийимларни конструкциялаш фанини ўқитишда 3d технологиясини қўллаш	47
Даминова М. Бўлажак дефектологларнинг касбий-методик тайёргарлигини таъминлаш масаласининг ижтимоий-педагогик аҳамияти	50
Джўраев Ф. Ҳарбий хизматчилар маънавий-ахлоқий ва мафқуравий дунёкарашини шакллантиришнинг тарихий-фалсафий талқини	53
Жабборов И. Эр-хотин муносабатларида тенгликни таъминлашнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	57
Hui Z., Yong-Feng Z. Study on the coupling and coordinated development relationship between higher education and regional economy in inner mongolia	60
Ismoilova Y. Boʻlajak tarbiyachilarda pedagogik odobi fazilatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	63
Karimov F. Yamandagi inqilob va nizolarning tarixiy ildizlari va buguni	66
Qarshiyeva Z., Begmatova D. Nanofizika asoslarini umumiy fizikani oʻqitishda qoʻllashning metodik asoslari	70
Qoʻziboyev Sh. Fizika fanini oʻqitishda virtual laboratoriya mashgʻulotlarini tashkil etish texnologiyalari	73
Qoʻldasheva M. Kompetensiyaviy yondashuv asosida universal taʼlimni tashkil etish mexanizmlari	76
Латипов Р. Умумий ўрта таълим тизимида график таълим самарадорлигини ошириш муаммолари	80
Мажидов Н., Мажидов Ф. Место психолого-педагогических знаний в теоретической и практической подготовки будущего учителя	84
Мажидов Ф., Мажидов Н. Социально-психологические основы выбора профессии	88
Максудова Х. Lingvodidactic issues of teaching english for specific purposes in the field of medicine annotation	91
Маматов М. Янги Ўзбекистон ёшлари маънавиятини шакллантиришда ислом манбаларининг стратегик аҳамияти	95
Мирзаев М., Мухаммадиев У. Маданий алоқаларнинг ривожланиши – туркий бирликнинг муҳим омили	99
Mirsharipova Z. Talabalarining oʻquv jarayonida bilimlarni oʻzlashtirishlarida uyquning ahamiyati	103
Мўминов А., Рахматиллаев М. Ёш гандболчиларнинг тезкорлик сифатини ривожлантириш технологияси	105
Муминова Д. Китоб – миллиятнинг маданий ва маънавий мероси	109
Назарова К. Ёш гимнастикачиларнинг бўғинларида ҳаракатчанликни ривожлантириш	113
Назирова М. Сиёсий жараёнларнинг назарий масалалари	117
Нишонов И. Дарсни ташкиллаштиришда ўқитувчининг маҳорати	121
Олимова М. Хотин-қизларнинг сиёсий хулқ-атвори назарий ва амалий жиҳатлари	124
Омонов Р. Давлат бошқарув органлари фаолияти самарадорлигини оширишда интерактив давлат хизматларидан фойдаланишнинг ўзига хос жиҳатлари	127
Роʻlatov S. 18-19 yoshli futbolchilarning maxsus chidamlilik darajasini qiyosiy tahlil qilish	131
Rahmonqulova D. Boshqaruv profili ofitserlarining oʻquv jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan chet tili darslaridagi ogzaki harbiy buyruqlar (nemis tili materiallari asosida)	134
Rahmonov N. Suzlash mashgʻulotlarining talabalar salomatligiga ijobiy taʼsiri	137
Rahmatova F. Fanlararo integratsiya-tafakkurni rivojlantiruvchi omil	140
Sadieva S. Characteristics of students' psychological stability	144
Саидова Ф. Қадрятлар тизимида шахслараро идрокнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	147
Саттарова Г. Илк ўспиринларда ирода кучининг намоён бўлиши ва унинг мотивацион компонентлар билан боғлиқлиги	151
Tashtayev Sh. Voleybol – TDTU talabalarining jismoniy koʻrsatkichlarini yaxshilovchi vosita sifatida	155
Тўхтасинов Б. “Давлат – халқ учун” ғояси ўзбекка хос умуммиллий жамоавий сафарбарлик ифодаси	158
Умарова Н. Аҳолини муваффақиятли иқтисодий ижтимоийлаштиришнинг интеграл мезони	162
Ҳайдарова Р. Финландия таълим тизимининг бошланғич синфларида математика дарсларини ўқитишнинг айрим масалалари	166
Xudoyberganov Z. Talabalar orasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy madaniyatning oʻrni	169
Хушматова Г. Сиёсий фаолият онгли равишда шахснинг ҳатти-ҳаракатида намоён бўлувчи омил	172
Ҳақбердиев Б. Интегратив ёндашувнинг муҳим вазибалари	175
Хусанова Х., Содиқова Ш. Замонавий ижтимоий ҳимоя тизимида дифференциаллик ва интеграция	178

Чиниева С. Внедрение в педагогический процесс образовательных инноваций и инновационная деятельность преподавателя	183
Филология	
Abdujabborova X. Falsafa terminologiyasining dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganilishi	186
Abdullaeva M. Linguocultural characteristics of proverbs expressing gender relations	189
Абдуллаева Р. Понятие ценности как основной составляющей концепта в паремиях	192
Азимов И. Жадидлар ва ўзбек тили унлилар тизими	195
Агирова К. Typology of texts relevant to translation	199
Achilov O. Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda ilgari surish vositalarining kognitiv-pragmatik xususiyatlari	203
Ёқубов И. Бадий-эстетик концепция: муштараклик ва ўзига хослик	207
Jo'rayeva M. Fransuz gazeta sarlavhalarining sintaktik xususiyatlari	211
Йўлдашева Х. Тилшуносликда матн типологияси ҳақидаги назарий қарашлар таҳлили	214
Kuldosheva N. Linguoculturological features of the literary text translation from english to uzbek	217
Qurbonova G. O'zbek tilida "Osmon jismlari" konseptining zoomorfemalar orqali verballashuvi	220
Маджидова Р. Положительная и отрицательная оценка человека на материале пословиц разносистемных языков	223
Матёқубова Т. Ўзбек аёли образининг поэтик тасвири	227
Masharipova L. Millat madaniyati – uning turmush tarzi sifatida	231
Мъруфова З., Penah D. O'zbek badiiy matnlarida ayol go'zalligining lingvistik tavsiri	235
Mekhmomova D., Qosimova N. Pragmatics of translation and its specific characteristics	238
Muminova D. O'zbek va ingliz tillarida turizm leksikasining lisoniy xususiyatlari	241
Насирова З. XX аср япон адабиётида "Неосенсуализм назарияси"	244
Низамова М. Романы В. Вулф 1910-х годов: становление метода	248
Пирназарова М. Омон Матжон – мумтоз адабиёт билимдони	251
Пўлатова С. Концептнинг лисоний моделлашув жараёни	255
Rasulova Z. Televideniya tonggi dasturlarining janr va tematik xususiyatlari	258
Rahmonqulov B. Turkiy tillar morfemik sathining tarixiy holati	261
Rizayeva K. Mediadiskurs va uning nutqiy akt sifatidagi xususiyatlari	265
Rixsiyeva K. Leksik semantikaga oid tadqiqotlar tavsifi	268
Saidova Z. O'zbek tilida qishloq xo'jaligi terminlarining funksional-semantik xususiyatlari talqini	272
Safоеva S. Literary influence and ideological-artistic commonality (based on the sociological research of Abdulla Qadiri's "Mehrobdan chayon" and "Pride and prejudice" by Jane Austen)	276
Sobirova R. O'zbek va ingliz tillarida leksik satx birliklarini tadqiq qilishning metodologik asoslari va tasniflash mezonlari	279
Суярова Н. Ўзбек ва инглизлар турмуш тарзининг лисоний манзараси	282
Узакова Г. Семантическая структура фразеологических единиц	285
Umarova R. Difference of corpus based language teaching in esl and efl student classes	287
Umarova S. O'zbek tilidagi fitonim komponentli paremiologik birliklar tadqiqi	290
Хидирова Ш. Дата журналистика ва структурал метод	293
Khodjakulova F. Adabiyot atama tizimlari qiyosiy o'rganish ob'ekti sifatida	296
Choriyeva Z. O'zbek va ingliz xalq tez aytishlarining bolalar folklori takomilida tutgan o'rni	299
Eshkobilova F. O'zbek va ingliz bolalar folklorining lingvokulturologik xususiyatlari	302
Юсупова Л. Особенности юмористических текстов	306



UDK: 808.2

Maqsuda JO'RAYEVA,
Buxoro davlat universiteti Nemis va fransuz tillari kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: m.m.jo'raeva@buxdu.uz

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, f.f.d. G.Xalliyeva taqrizi asosida

SYNTAXIC FEATURES OF FRENCH NEWSPAPER HEADLINES

Annotation

The article talks about the main task of the written press, the language and style of newspapers and magazines, the purpose of the author of the article, the situations in weekly publications, and the syntactic features of the headlines make up the main part of the article. The variety of French publications is related to their different functional characteristics, functional direction. They serve different purposes and cater to the needs of different learners, using different methods of engaging learners. These goals and direction will be the model for all publications of each newspaper and magazine and will be reflected in their titles. The title plays an important role in mantis and in the press in general. This is the most important element of the article. The title stands out. At the beginning of the article and its printing through characters, size, etc. This serves to encourage readers to read the article. There is a very close relationship between the title, article and page. The title summarizes the article and can be thought of as a label that provides information about the content of the article.

Keywords: title, commentary, editor, style, fact, editorial, communicative function, analysis, syntactic feature.

СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАГОЛОВКОВ ФРАНЦУЗСКИХ ГАЗЕТ

Аннотация

В статье говорится об основной задаче письменной прессы, языке и стиле газет и журналов, цели автора статьи, ситуациях в еженедельных публикациях, а также синтаксических особенностях заголовков, составляющих основную часть статьи. Разнообразие французских изданий связано с их различными функциональными характеристиками, функциональной направленностью. Они служат разным целям и удовлетворяют потребности разных учащихся, используя разные методы вовлечения учащихся. Эти цели и направления будут образцом для всех изданий каждой газеты и журнала и будут отражены в их названиях. Название играет важную роль в богомоле и в прессе в целом. Это самый важный элемент статьи. Название выделяется. В начале статьи и ее печати через символы, размер и т.д. Это служит для поощрения читателей прочитать статью. Существует очень тесная связь между заголовком, статьей и страницей. Заголовок резюмирует статью и может рассматриваться как метка, предоставляющая информацию о содержании статьи.

Ключевые слова: заголовок, комментарий, редактор, стиль, факт, редакция, коммуникативная функция, анализ, синтаксический признак.

FRANSUZ GAZETA SARLAVHALARINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada yozma matbuotning asosiy vazifasi, gazeta-jurnallar tili hamda uslubi, funksiyasi, maqola muallifining maqsadi, haftalik nashrlardagi vaziyatlar haqida so'z boradi, hamda, gazeta sarlavhalarining sintaktik xususiyatlari maqolaning asosiy mazmun—mohiyatini tashkil qiladi. Fransuz nashrlarining xilma-xilligi ularning turli funksional xususiyatlari, funksional yo'nalishi bilan bog'liq. Ular turli maqsadlarni ko'zlaydi va o'quvchilar e'tiborini jalb qilishning turli usullaridan foydalangan holda o'quvchilarning talablarini hisobga olib ish tutadi. Bu maqsadlar va yo'nalishlar har bir gazeta va jurnalning barcha nashrlari uchun namuna bo'ladi va ularning sarlavhalarida aks etadi. Sarlavha mantlarda va umuman olganda, matbuotda muhim rol o'ynaydi. Bu maqolaning eng muhim elementi hisoblanadi. Sarlavha o'z o'zini bilan ajralib turadi. Maqolaning boshida va uning belgilar orqali chop etilganligi, o'lchami va hokazo. Bu esa o'quvchilarni maqolani o'qishga undash uchun xizmat qiladi. Sarlavha, maqola va sahifa o'rtasida juda yaqin munosabatlar mavjud. Sarlavha maqolani umumlashtiradi va uni maqola mazmuni haqida ma'lumot beruvchi yorliq deb hisoblash mumkin.

Kalit so'zlar: sarlavha, sharhlash, muharrir, uslub, fakt, tahririyat, kommunikativ funktsiya, tahlil, sintaktik xususiyat.

Kirish. Axborot insonlarning atrofida dunyoni tushunishlari uchun muhim manba bo'lib, jamiyat muammolari to'g'risida o'z fikrini shakllantirishga yordam beradigan nutq va tasavvurni ifodalaydi.

Matbuot yozma nutq mahsulati sifatida ahamiyatlidir. Bosma ommaviy axborot vositalari sahifalarida e'lon qilingan materiallar tafakkurni kengaytirish, dunyoqarashni boyitish bilan birga savodxonlikni oshirishda ham yetakchi manba sifatida xizmat qiladi. Gazeta-jurnallar tili hamda uslubiga ko'ra o'ziga xosligi, murakkabligi bilan alohida ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Yozma matbuotning asosiy vazifasi uzoq vaqt davomida turli ommaviy axborot vositalari, xususan, milliy va mintaqaviy

kundalik gazetalar yoki jurnallar orqali tarqatilgan maqolalar va sharhlar orqali ma'lumotni uzatish, tushuntirish va sharhlashdan iborat. "Matbuot nashrlarini tayyorlash hamda ommaga uzatishda matnning qisqaligi, sharh hajmidagi axborot, kichik anonslar, shov-shuvli foto-suratlar va e'tiborni jalb etuvchi sarlavhalar yetakchilik qiladi. Tadqiqotchilar fikricha, bugun yangi tipdagi mutolaachilar – yengil gazetxonlar (light-reader) paydo bo'lgani bois jiddiy tahlilga asoslangan nashrlar adadi hamda soni kundan kunga kamayib bormoqda" (9).

Sarlavha – matn mazmuni bilan tanishtiradi, ohang va ba'zi kalit so'zlarni o'rnatadi va o'quvchining qiziqishini uyg'otadi. Sarlavha hech qachon o'quvchini chalg'itmasligi

kerak. U asosiy elementlarni ko'rsatishi kerak. Sarlavha murakkab lingvistik hodisa bo'lib, uning strukturasi, semantikasi va funksiyasi gazeta diskursiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Bu holat, birinchidan, nolingvistik omillarga bog'liq, jumladan, gazeta va jurnallarning davriyligiga, ya'ni ular har kuni nashr qilinadimi yoki haftadami, oydami. Ikkinchidan, ular qaysi sohaga yoki ixtisoslikka yo'naltirilgan. Uchinchidan, bitta gazetadagi maqolalarning kommunikativ funksiyalariga, ya'ni o'quvchilar uchun qanaqa axborot berishiga bog'liq. To'rtinchidan, maqola muallifining maqsadiga, ya'ni nima maqsadda shunday sarlovhani tanladi va h.z. Bularning barchasini yoritib berish uchun nafaqat sarlovhaning o'zi, balki u va maqola mazmuni o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik e'tiborga olinishi lozim (2,3).

“Sarlavha ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, sarlavha – matnning tashqarisida joylashgan va muayyan mustaqillikka ega nutq elementi. Boshqa tomondan, u matnning to'laqonli tarkibiy qismi sifatida asarning boshqa tarkibiy qismlari bilan uzviy bog'liq. Ivan Bunin asarning ilk jumlasini, ya'ni sarlovhaning mohiyati, qimmatini shunday baholaydi: Ijodning ilk bosqichida asarning umumiy ohangi qulog'imga chalinadi. Muhimi, dastlabki yozilgan jumlaning asar taqdirini hal etuvchi ahamiyatga egaligida. Ilk jumla asar janrini, maromini belgilab beradi... Modomiki, quloqqa

chalingan o'sha ohang rivoj topmasa, shubhasiz, chalg'ib ketasan, boshlagan asaringni bir chetga surib qo'yasan yoki undan bir narsa chiqmaydi, tashlab yuborasan. L.M. Koltsova ta'biricha, sarlavha — asarning birinchi belgisi, undan matn bilan tanishish boshlanadi. U o'quvchini asar dunyosi bilan tanishtiradi va uning idrokini faollashtiradi. A.I. Domashnev sarlavha asarning mavzusi yoki g'oyasini o'zida ifodalashini e'tirof etadi”(8).

Natija va muhokamalar. Sarlavha mazmuni, uslubi va uzun – qisqaligi bilan farq qiladi. “Gazetadagi sarlavha bilan fotosuratlar o'rtasida “kimyoviy reaksiya” sodir bo'ladi, sayt uchun uyg'unlik sodir bo'lishi kerak” – deydi veb internet muharriri Nikoloya Dyufur. Uning jamoasi sarlavha qog'ozda ko'rsatilgandan ko'ra saytda aniqroq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. “Internet – cheksiz oqim bo'lib, unda internet foydalanuvchisi matn yoki vizual tarzda ma'lumotlardan xabardor bo'ladi”, deya qo'shimcha qiladi Nikoloya Dyufur. – Biz eski jurnalistik tamoyilga tayanamiz: “elementlarning birikishiga”. Maqolaning mavzusi faqat sarlavha yoki uning “shapo”sini o'qish orqali tushunarli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi (4).

Quyida kunda, haftada va oyda nashr qilinadigan gazetalarning bir-biridan farqini ko'rsatamiz. Shunga o'xshash farqlarni sarlavha mohiyatining har bir sathida kuzatilishi mumkin.

Gazeta nomi	Chiqish davri	Sarlavhalar soni
Le Monde	11.03.2022	71
Le Figaro	20.04.2022	86
La Croix	04.01.2022	53
L'Equipe	14.03.2022	45
Le Parisien	20.04.2022	52

Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, bugungi kunda Fransiyada bir necha ming gazeta va jurnallar nashr etiladi, 650 dan ortiq yirik bosma nashrlar ma'lum va ulardan 75 tasi har kuni nashr etiladi (5).

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, fransuz nashrlarining xilma-xilligi ularning turli funksional xususiyatlari, funksional yo'nalishi bilan bog'liq. Ular turli maqsadlarni ko'zlaydi va o'quvchilar e'tiborini jalb qilishning turli usullaridan foydalangan holda turli o'quvchilarning talablarini hisobga olib ish tutadi. Bu maqsadlar va yo'nalish har bir gazeta va jurnalning barcha nashrlari uchun namuna bo'ladi va ularning sarlovhalarida aks etadi. Bosma nashrning davriyligi uning maqsadlarini va shunga mos ravishda sarlovhalarining vazifalarini aniqlashda asosiy mezon hisoblanadi. Kundalik gazetalarning asosiy vazifasi, masalan, eng so'nggi yangiliklarni yetkazishdir. O'quvchi, eng avvalo, aniq va dolzarb faktlarni, so'nggi yangiliklarni, ma'lumotlarni sof ko'rinishda, izlaydi. Haftalik nashrlarda esa vaziyat boshqacha, Vaqtinchalik yoki, ehtimol, tezlik omili bu yerda ahamiyatsiz yoki umuman alohida rol o'ynamaydi. Haftalik yoki oyda bir marta chiqadigan gazeta va jurnallarga murojaat qilganda, o'quvchi endi “yalong'och” faktlarni emas, balki puxta o'ylangan tahlil, sifatli qayta ishlangan ma'lumotni ekspert mulohazalari, ularning prognozlarini va muayyan mavzu bo'yicha mulohazalarni izlaydi. Yoki, aksincha, u bir hafta davomida uning ustiga tom ma'noda qulab tushadigan uzluksiz ommaviy axborot oqimidan uzoqlashishga harakat qiladi va endi butunlay yangi va g'ayrioddiy narsalarni o'qishni xohlaydi (6).

Gazeta barcha sohalaridagi dolzarb voqealarni yoritadi. Ichki, milliy va xalqaro siyosatga oid maqolalar, jamiyat, iqtisod, badiiy tanqid, sport yangiliklari, sevimli mashg'ulotlarga oid maqolalar bularning barchasi yaqinda bo'lgan voqealar bilan bog'liq. Gazetalar juda ko'p, umuman olganda, inson o'zining siyosiy tanloviga ko'ra muntazam

o'qiydigan gazetani tanlaydi. Fransuz gazetalari orasida asosiy chap qanot gazetalari “Libération” va “L'Humanité” gazetalari hisoblanadi. “Le Monde” markaziy chap qanot, “Le Figaro”, “France-Soir” va “Le Parisien” esa o'ng qanot gazetalaridir (1).

Gazetadan farqli o'laroq, jurnallar esa dolzarb voqealarga asoslangan bo'lsa-da, mavzularni qayta ishlab chiqadi. Masalan: “Vogue” jurnali kiyim modasi bilan batafsil shug'ullanadi. “Le Studio” jurnali – esa namoyish etilayotgan filmlar, suratga olishlar, aktyorlar haqida ham xabar beradi. Biroq, jurnal ma'lum bir auditoriya turiga, masalan, “Elle” kabi ayollar jurnaliga mo'ljallangan bo'lishi mumkin va shu tariqa bir jurnal ichida turli mavzular bilan shug'ullanishi mumkin.

Tabloid matbuot deb ataladigan tushuncha ham bor. Misol uchun, “Paris Match” o'zining “So'zning og'irligi, fotosuratlarining zarbasi” shiori bilan mashhur bo'lgan. Chunki u yangiliklarni hayratlanarli fotosuratlar va qiziqarli reportajlar bilan yoritadi va ko'pincha nozik mavzular bilan shug'ullanadi. Ba'zida gazeta va jurnal o'rtasida chegara xiralashadi. Agar “L'Equipe” misolida oladigan bo'lsak, bu gazeta faqat sport yangiliklari bilan shug'ullanadigan kundalik gazeta bo'lib, yakshanba kunlari ham jurnal taqdim etiladi.

Sarlavhalarining sintaktik xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi uchta fransuz gazetasiining elektron versiyasini tanlab oldik, chunki bugungi kunda onlayn matbuot ko'plab o'quvchilarni qamrab oladi. Haqiqatan ham hozirgina sodir bo'lgan voqealar haqida darhol ko'proq ma'lumot olishni xohlaydiganlar elektron matbuotdan foydalanishni afzal ko'radilar va gazetani bosma nusxasida sotib olish uchun ertangi kuni kutmaydilar.

- L' Humanité Vendredi 22, Samedi 23et Dimanche 24 Octobre, 2021 № 23297

Les phrases simples (oddiy gaplar):

- Le gouvernement gagne un premier bras de fer.

- Au camp de Souge, des héros sont tombés.
 - Mattéo Guendouzi comme un poisson dans l'eau à Marseille.
 Les phrases non verbale (fe'lsiz gaplar):
 - Georges Brassens en cent métamorphoses.
 Le Parisien dimanche 24 Octobre 2021 № 23996
 Les phrases simples (oddiy gaplar):
 - Dieu sauve leur reine.
 - La Toussaint, une période cruciale pour les parcs animaliers.
 - C'était le paradis de ZOLA.
 - L'écriture m'a servi à ne pas sombrer.
 - Faites entrer les fans.
 Mardi le 26 octobre 2021 Le Figaro № 24 006
 Les phrases simples (oddiy gaplar):
 - Déjà en campagne, Macron s'expose sur tous les fronts.
 - Pour les oppositions, le gouvernement est en campagne.
 - Érie Zemmour affiche sa volonté de séduire les classes populaires.
 So'z birikmali gaplar ot+sifat
 - Dégel en vue dans les relations entre l'Iran et l'Arabie saoudite.
 - Mattéo Guendouzi, le nouvel homme fort.
 - À Madagascar, la première famine climatique.
 Moustique Magazine 29. Décembre 2021 (so'z birikmali gaplar)
 - Codeco: la victoire du vin chaud. (ot+ sifat)
 - La théorie de la perruche. (ot+pred+ot)
 - Les polémiques du réveillon. (ot+ot)

- Les télécoms belges. (ot+sifat)
 - Bâtir ou investir? (fe'1+fe'1)
 - Le monde tel qu'en images. (ot+sifat+ot)
 - Wallonie meurtrie. (ot+ ravishdosh)
 - Naufrage à Calais. (ot + ot)
 - Retour dans l'espace
 - Une année de buzz éclair
 - Le cinéma d'auteur pour tous
 - L'icône de l'art conceptuel
 - Revenants du temps (6).

Matn sarlavhasida ixchamlikka bo'lgan ehtiyoj o'zini predikativ tuzilishlardagi yordamchi fe'llar va ot so'z birikmalaridagi aniqlovchi kabi ba'zi lingvistik elementlarning tushirib qoldirilishida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, sarlavhaning xarakterli qisqaligi standart tildan og'ishga olib keladi, bu "qisqa va elliptik" sintaksis va uning semantik kondensatsiya kuchi esa matnni o'qish va tushunish jarayonini tezlashtiradi (7).

Xulosa. Bugungi kunda sarlavha san'ati bosma ommaviy axborot vositalari uchun muhim ahamiyatga ega va ko'p jihatdan o'quvchiga taqdim etilgan materiallarning kelajagini belgilaydi. Sarlavhalarning tuzilishi va ularning yo'nalishi yaratilgan maqolalarning funksional vazifalari bilan belgilanadi. Matbuotda sarlavhani shakllantirish uchun turli tuzilmalar mavjudligini ta'kidlaymiz. U to'liq jumla bo'lishi shart emas. Maqola mazmunan yaxshi bo'lgani bilan sarlavha jo'n bo'lsa, maqola o'z o'quvchisining yarmini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, sarlavha maqola uchun juda muhim rol o'ynaydi. Maqola va gazeta taqdirini hal qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Bobokalonov R.R. Text linguistics and the problem of the syntax Ilmiy maqola// Scientific reports of Bukhara state university, 2021. – № 5–6, 2021.
2. Hojiev G.S. Linguovoculary properties of art terms (On the example of French and Uzbek languages) // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Volume: 25 No. 1 2021, – P. 09–15.
3. Juraeva, M. M. (2020). Category of modality: research and interpretation. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 149–154. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-06-86-29>
4. Juraeva M.M., Bobokalonov O.O. Pragmalinguistical Study of French–Uzbek Medicinal Plant Terminology. Electronic Journal of Actual Problems Of Modern Science, Education And Training. December, 2020–Vi. Issn 2181–9750
5. Juraeva M.M. Theoretical Views of Concept, Frame, Tale–Concept, Tale–Frame in Cognitive Linguistics. International Journal of Engineering and Advanced Technology (JEAT) Volume–8, Issue–5S3,2019.–P.392–395.
6. Juraeva M.M., Khamidova M.Kh. Linguoculture and Linguocultureme. //Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 3, Iss. 4, Article 6, 2020.
7. Kuldasheva N.B. Theoretical View Points of Linguists on Terminology // International Scientific Journal. Theoretical & Applied Science, Issue: 12 Volume: 80, 2019. <http://TScience.org>;
8. To'rayeva B.B. Chingiz Aytmatov romanlari sarlavhasining struktur tahlili // Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2021. — № 4 (39). — Б. 132-142.
9. Xalilova A.Sh. Yaponiya ommaviy axborot vositalarida madaniy-ma'rifiy va rekreativlik jurnalistikasining shakllanish va rivojlanish tendensiyasi: Филол.фан.фалс.д-ри, 2020. – Б. 49.